



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	

IJTIMOIIY-IQTISODIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI



Alimov Nasimjon Hoshimovich,
O'zLiDeP Amaliy loyihalar va siyosiy ta'lim markazi rahbari,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
nasimjon1@mail.ru, tel.: 90-175-67-01

Abstract. The article examines the theoretical and methodological possibilities of a synergetic approach to the study of socio-economic justice. Socio-economic justice is interpreted as an open and complex system consisting of interacting economic, social, and institutional relations. The synergetic principles of systemic organization, nonlinearity, interdependence, feedback, self-organization, and emergence are adapted to justice relations. The author proposes the concepts of “**synergetic justice**” and “**chain justice**” as its mechanism of action. Chain justice represents the formation of an overall socio-economic result based on the interaction of justice in property, opportunity, labor, distribution, exchange, tax-budget, consumption, savings, and investment relations. It is argued that institutional imbalance in one link of justice spreads to subsequent links and, conversely, that coordinated justice mechanisms produce a positive synergetic result.

Keywords: socio-economic justice, synergetics, synergetic justice, chain justice, complex economic system, nonlinearity, emergence, justice multiplier, institutional mechanism, welfare.

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy adolatni tadqiq etishga sinergetik yondashuvning nazariy va metodologik imkoniyatlari asoslangan. Ijtimoiy-iqtisodiy adolat o'zaro ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional munosabatlardan tashkil topgan ochiq va murakkab tizim sifatida talqin qilingan. Sinergetikaning tizimlilik, nochizlilik, o'zaro bog'liqlik, qayta aloqa, o'z-o'zini tashkil etish va emerjentlik tamoyillari adolat munosabatlariga moslashtirilgan. Muallif tomonidan “**sinergetik adolat**” va uning amal qilish mexanizmi sifatida “**zanjirli adolat**” tushunchalari taklif etilgan. Zanjirli adolat mulk, imkoniyat, mehnat, taqsimot, ayirboshlash, soliq-byudjet, iste'mol, jamg'arish va investitsiya munosabatlaridagi adolatning o'zaro ta'siri asosida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy natija shakllanishini ifodalaydi. Adolatning bir bo'g'inidagi institutsional nomutanosiblik keyingi bo'g'inlarga tarqalishi, aksincha, muvofiqlashtirilgan adolat mexanizmlari sinergetik ijobiy natija keltirib chiqarishi asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy adolat, sinergetika, sinergetik adolat, zanjirli adolat, murakkab iqtisodiy tizim, nochizlilik, emerjentlik, adolat multiplikatori, institutsional mexanizm, farovonlik.

Аннотация. В статье обоснованы теоретические и методологические возможности синергетического подхода к изучению социально-экономической справедливости. Социально-экономическая справедливость интерпретируется как открытая и сложная система, состоящая из взаимодействующих экономических, социальных и институциональных отношений. К отношениям справедливости адаптированы принципы системности, нелинейности, взаимозависимости, обратной связи, самоорганизации и эмерджентности. Автором предложены понятия «**синергетическая справедливость**» и «**цепная справедливость**» как механизм её действия. Цепная справедливость представляет собой формирование общего социально-экономического результата на основе взаимодействия справедливости в отношениях собственности, возможностей, труда, распределения, обмена, налогово-бюджетных отношениях, потреблении, сбережениях и инвестициях. Обосновано, что институциональный дисбаланс в одном звене справедливости распространяется на последующие звенья и, наоборот, скоординированные механизмы справедливости обеспечивают положительный синергетический результат.

Ключевые слова: социально-экономическая справедливость, синергетика, синергетическая справедливость, цепная справедливость, сложная экономическая система, нелинейность, эмерджентность, мультипликатор справедливости, институциональный механизм, благосостояние.



KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy adolat murakkab va ko'p o'lchamli iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni faqat daromadlarni taqsimlash yoki aholini ijtimoiy himoya qilish munosabatlari bilan cheklab bo'lmaydi. Mulkchilik, mehnat, ishlab chiqarish, daromadlar taqsimoti, ayirboshlash, soliq-byudjet munosabatlari, iste'mol, jamg'arish, investitsiya, inson kapitali va institutsional muhit bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilib, jamiyatdagi umumiy adolat holatini shakllantiradi.

An'anaviy tahlilda ushbu munosabatlarning har biri ko'p hollarda alohida tadqiq etiladi. Biroq real iqtisodiyotda mulkchilik munosabatlaridagi imkoniyatlar mehnat bozorida holatga, mehnat natijalari daromadlarga, daromadlar iste'mol va jamg'arishga, jamg'arish investitsiyalarga, investitsiyalar esa kelgusi ishlab chiqarish va daromad imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, ijtimoiy-iqtisodiy adolat bir nechta mustaqil adolat turlarining mexanik yig'indisi emas, balki ularning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan tizimli holatdir.

Mazkur xususiyat ijtimoiy-iqtisodiy adolatni tadqiq etishda sinergetika va murakkab tizimlar nazariyasining ayrim metodologik qoidalaridan foydalanish imkoniyatini ochadi.

Xakenning sinergetik yondashuvda murakkab tizimning makroholati uni tashkil etuvchi ko'p sonli elementlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Prigojin tadqiqotlari esa ochiq, muvozanatdan uzoq tizimlarda tashqi va ichki ta'sirlar natijasida yangi tuzilmalar paydo bo'lishini ko'rsatgan. Bu prinsiplarni ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarga to'g'ridan-to'g'ri fizik qonun sifatida emas, balki tizimli tahlil metodologiyasi sifatida qo'llash mumkin.

Maqolaning maqsadi — sinergetik yondashuv asosida ijtimoiy-iqtisodiy adolatning tizimli tabiatini ochib berish, "sinergetik adolat" va "zanjirli adolat" konsepsiyalarini shakllantirish hamda ularning amal qilish mexanizmini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinergetika fanlararo metodologik yondashuv sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. German Xakenning "Sinergetika" asarida murakkab ko'p komponentli tizimlarda o'zaro ta'sir natijasida makrodarajada tartibli tuzilmalar paydo bo'lishi va o'z-o'zini tashkil etish jarayonlari tadqiq etilgan [1].

Ilya Prigojinning nomuvozanat termodinamikasi bo'yicha ishlari ochiq tizimlarda nomuvozanat ba'zi sharoitlarda yangi tartib va strukturalar paydo bo'lishining manbai bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. U bu holatlarni "dissipativ strukturalar" bilan bog'lagan [2].

Ushbu yondashuvlarni iqtisodiyotga aynan fizik model sifatida ko'chirish mumkin emas. Biroq iqtisodiyotning o'zaro moslashuvchi agentlardan tashkil topgan murakkab va evolyutsion tizim ekanligini ta'kidlovchi kompleks (murakkab) iqtisodiyot yo'nalishi sinergetik fikrlash bilan umumiy metodologik jihatlariga ega. Brayan Arturning yondashuvda iqtisodiyot doimiy ravishda shakllanib boradigan, agentlar esa o'zlari ishtirok etayotgan iqtisodiy muhitga moslashadigan murakkab tizim sifatida ko'riladi [3].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tizimli siyosat yuritishga oid tadqiqotlarida ham iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning nochiziqli xususiyati, turli siyosat sohalari o'rtasidagi bog'liqlik va bir sohadagi qarorning boshqa sohalarga kutilmagan ta'siri mavjudligi ta'kidlanadi [4].

Biroq ijtimoiy-iqtisodiy adolatni mulkchilikdan tortib investitsiya va kelgusi iqtisodiy imkoniyatlarga bo'lgan yagona **adolat zanjiri** sifatida talqin qiluvchi maxsus nazariy model yuqoridagi manbalarning bevosita predmeti emas. Shu sababli ushbu maqolada taklif etilayotgan "**sinergetik adolat**" va "**zanjirli adolat**" mualliflik konsepsiyalari sifatida shakllantirildi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, institutsional tahlil, sabab-oqibat tahlili, qiyosiy tahlil va sinergetik yondashuv elementlaridan foydalanildi, mazkur maqola matnini tayyorlashda esa sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

Sinergetik metodologiyadan foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga quyidagi xususiyatlar nuqtai nazaridan yondashildi:

ochiqlik — iqtisodiy adolat tizimi siyosiy, ijtimoiy, texnologik va global muhit bilan doimiy aloqada bo'ladi;

murakkablik — umumiy adolat ko'plab subyektlar va iqtisodiy munosabatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi;

nochiziqlik — muayyan institutdagi kichik o'zgarish ba'zan butun tizimda katta ijtimoiy-iqtisodiy natija keltirib chiqarishi mumkin;

qayta aloqa — iqtisodiy adolat iqtisodiy ishonch va faollikka, ular esa o'z navbatida iqtisodiy natija va keyingi adolat darajasiga ta'sir qiladi;



emerjentlik — tizimning umumiy adolat holati uning alohida qismlari xususiyatlarining oddiy yig'indisi bilan cheklanmaydi;

o'z-o'zini tashkil etish — adolatli va ishonchli institutlar iqtisodiy subyektlarda hamkorlik, shartnomaviy intizom va o'zaro ishonch kabi xulq-atvorlarni ichki ravishda shakllantirishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tizimli yondashuvi ham davlat siyosatini baholashda sohalar o'rtasidagi bog'liqliklar, nochiziqli natijalar va siyosat choralarning butun tizimga ta'sirini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Sinergetik adolat tushunchasi

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz: **Sinergetik adolat — iqtisodiy munosabatlarning turli sohalaridagi adolat qoidalari, institutlari va iqtisodiy subyektlar xatti-harakatlarining o'zaro muvofiq ta'siri natijasida alohida mexanizmlar samarasining oddiy yig'indisidan yuqori bo'lgan tizimli ijtimoiy-iqtisodiy natija — tengroq imkoniyat, yuqori ishonch, iqtisodiy faollik, ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni yuzaga keltiruvchi adolat holatidir.**

Bu yerda **sinergiya** adolat choralarning ko'pligi bilan emas, ularning **o'zaro muvofiqligi** bilan yuzaga keladi.

Masalan, sifatli ta'limning o'zi yetarli emas. Agar mehnat bozorida teng imkoniyat, raqobatli ish o'rinlari va xolis haq to'lash tizimi mavjud bo'lmasa, ta'limga investitsiyaning adolat natijasi to'liq ro'yobga chiqmaydi.

Xuddi shuningdek, tadbirkorlik uchun kredit mavjud bo'lib, mulk huquqi yoki raqobat muhiti yetarli himoya qilinmasa, moliyaviy inklyuzivlik kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Demak, adolat institutlarining samarasi ularning individual sifatigagina emas, balki bir-biriga qay darajada muvofiq ishlashiga ham bog'liq.

Bu sinergetik adolat konsepsiyasining birinchi asosiy qoidasidir.

2. Zanjirli adolat konsepsiyasi

Sinergetik adolatning iqtisodiy takror ishlab chiqarishda amal qilish shaklini **“zanjirli adolat”** sifatida ifodalash mumkin.

Bizning fikrimizcha: **Zanjirli adolat — iqtisodiy takror ishlab chiqarishning bir bosqichidagi adolat holati keyingi bosqichlardagi iqtisodiy imkoniyat va natijalarga uzatilishi hamda ularning o'zaro ta'siri natijasida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy adolat darajasi shakllanishini ifodalovchi qonuniyatdir.**

Uning umumlashtirilgan ko'rinishi:

Mulkiy adolat

- Iqtisodiy imkoniyatlar adolati
- Ishlab chiqarish va mehnat adolati
- Daromadlar taqsimoti adolati
- Ayirboshlash adolati
- Soliq-byudjet adolati
- Iste'mol adolati
- Jamg'arish adolati
- Investitsion adolat
- Yangi iqtisodiy imkoniyatlar
- Yangi adolat sikli.

Ushbu zanjirning metodologik ahamiyati shundaki, bir bosqichdagi adolatsizlik keyingi iqtisodiy natijalarga **kumulyativ ta'sir** ko'rsatishi mumkin.

Masalan:

ta'lim imkoniyatidagi tengsizlik

- malaka tafovuti
- mehnat bozoridagi imkoniyatlar tafovuti
- daromadlar tafovuti
- jamg'arish imkoniyati tafovuti
- investitsiya va aktivlarga egalik tafovuti
- keyingi avlod imkoniyatlari tafovuti.

Shu tariqa dastlab nisbatan kichik bo'lgan imkoniyatlar farqi iqtisodiy zanjir bo'ylab harakat qilib, oxir-oqibat kattaroq mulkiy va daromad tengsizligiga aylanishi mumkin.

Brayan Arturning murakkab iqtisodiy tizimlarda ijobiy qayta aloqalar va yo'lga bog'liqlik haqidagi ishlari kichik dastlabki farqlar ba'zi sharoitlarda keyinchalik kuchayishi mumkinligini iqtisodiy tizimlar misolida ko'rsatadi. Bu



g'oya zanjirli adolatni bevosita isbotlamaydi, ammo uning nochiziqli va kumulyativ mexanizmlarini tushuntirish uchun metodologik asos beradi [3].

5. Sinergetik adolatning amal qilish modeli

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi konseptual model taklif etiladi:

ADOLATLI INSTITUTLAR



TENGROQ IQTISODIY IMKONIYATLAR



ADOLATLI MEHNAT VA AYIRBOSHLASH



HISSAGA MUTANOSIB DAROMAD



MUNOSIB ISTE'MOL + JAMG'ARISH



INVESTITSION IMKONIYAT



INSON VA MODDIY KAPITAL O'SISHI



YUQORI IQTISODIY FAOLLIK VA FAROVONLIK



ISHONCH VA INSTITUTSIONAL BARQARORLIK



ADOLATNING YANGI, YUQORIROQ DARAJADA TAKROR ISHLAB CHIQRILISHI.

Mazkur model asosida sinergetik adolatning umumiy qoidasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy adolatning umumiy samarasi uni tashkil etuvchi alohida adolat turlarining oddiy yig'indisi bilan emas, balki ular o'rtasidagi bog'liqlik, muvofiqlik va o'zaro kuchaytiruvchi ta'sir darajasi bilan belgilanadi.

6. O'zbekistonda sinergetik adolat yondashuvini qo'llash

Sinergetik yondashuv O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin [5].

Masalan, kambag'allikni qisqartirish alohida nafaqa siyosati bilan cheklanmasligi kerak. Agar: **"ta'lim + kasbiy ko'nikma + bandlik + kredit + infratuzilma + bozorga kirish"** birgalikda ishlasa, ularning umumiy natijasi alohida choralarning oddiy yig'indisidan yuqori bo'lishi mumkin.

Xuddi shuningdek: **"ijtimoiy himoya + kasbga tayyorlash + tadbirkorlik imkoniyati + moliyaviy inklyuzivlik"** uyg'unligi insonni ijtimoiy yordamga qaram holatdan mustaqil daromad yaratuvchi iqtisodiy subyektga o'tkazishi mumkin.

Shuning uchun davlat dasturlarini ishlab chiqishda sohaviy "silos" yondashuvidan ko'ra, o'zaro ta'sir va qayta aloqalarni hisobga oluvchi tizimli siyosatning ahamiyati ortadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ham murakkab siyosiy-ijtimoiy muammolarda alohida sohalar kesimidagi an'anaviy yondashuvlar o'rniga sektorlararo bog'liqliklarni hisobga oluvchi tizimli fikrlashni tavsiya etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy adolat murakkab ochiq iqtisodiy tizim xususiyatiga ega bo'lib, uning umumiy holati mulk, mehnat, daromad, ayirboshlash, davlat siyosati, iste'mol, jamg'arish va investitsiya munosabatlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Ikkinchidan, sinergetik yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy adolatni alohida sohalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro ta'sir etuvchi adolat institutlari tizimi sifatida tadqiq qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, muallif tomonidan taklif etilayotgan **"sinergetik adolat"** konsepsiyasi adolat institutlarining muvofiq faoliyati natijasida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraning kuchayishini ifodalaydi.

To'rtinchidan, **"zanjirli adolat"** bir iqtisodiy bosqichdagi adolat yoki adolatsizlikning keyingi bosqichlarga uzatilishini ifodalaydi.

Beshinchidan, bu jarayon ijobiy holatda **"adolat multiplikatori"**, salbiy holatda esa **"adolatsizlik kaskadi"**ni shakllantirishi mumkin.



Oltinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim vazifasi zanjirning yakunidagi adolatsiz natijalarni faqat qayta taqsimlash emas, balki adolatsizlikning dastlabki va eng kuchli tarqalish nuqtalarini aniqlash va ularga preventiv ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lishi lozim.

Shular asosida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida **“alohida chora → kompleks choralar → o'zaro muvofiq siyosat → sinergetik natija”** mantig'iga o'tish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Haken H. *Synergetics: An Introduction. Nonequilibrium Phase Transitions and Self-Organization in Physics, Chemistry and Biology*. – Berlin; Heidelberg: Springer-Verlag, 1977. – 328 p. – DOI: 10.1007/978-3-642-96363-6. – URL: <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-96363-6>
2. Prigogine I. *Time, Structure and Fluctuations: Nobel Lecture, 8 December 1977* [Elektron resurs] // NobelPrize.org. – 1977. – URL: <https://www.nobelprize.org/prizes/chemistry/1977/prigogine/lecture/> – Murojaat sanasi: 19.08.2026.
3. Arthur W. B. *Complexity Economics: A Different Framework for Economic Thought* [Elektron resurs]. – Santa Fe, NM: Santa Fe Institute, 2013. – Working Paper No. 2013-04-012. – URL: <https://www.santafe.edu/research/results/working-papers/complexity-economics-a-different-framework-for-eco> – Murojaat sanasi: 19.08.2026. Santa Fe Institute ushbu ishni aynan 2013-04-012-sonli working paper sifatida beradi.
4. Hynes W., Lees M., Müller J. (eds.). *Systemic Thinking for Policy Making: The Potential of Systems Analysis for Addressing Global Policy Challenges in the 21st Century*. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 173 p. – DOI: 10.1787/879c4f7a-en. – URL: <https://doi.org/10.1787/879c4f7a-en>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son ***Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida***gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-8050769> – Murojaat sanasi: 19.08.2026. Ushbu Farmon bilan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan yangilangan “O'zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlangan.
6. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. Yangi tahrir. – 2023-yil 30-aprel // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> – Murojaat sanasi: 19.08.2026. Konstitutsiya ijtimoiy davlat, mulk, mehnat, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va boshqa fundamental munosabatlar bo'yicha maqolangizning huquqiy bazasiga mos keladi.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son ***Ta'lim to'g'risida***gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007> – Murojaat sanasi: 19.08.2026.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O'RQ–642-son ***Aholi bandligi to'g'risida***gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-5055690> – Murojaat sanasi: 19.08.2026. Mazkur Qonunning amaldagi matnida keyingi, jumladan 2026-yildagi o'zgartirishlar ham aks etgan.
9. *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi*. – 2019-yil 30-dekabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-4674902> – Murojaat sanasi: 19.08.2026. Kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, hisoblash va to'lash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.
10. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ–598-son ***Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida***gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-4664142> – Murojaat sanasi: 19.08.2026.
11. Rawls J. *A Theory of Justice*. Revised ed. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1999. Rawlsning qayta ishlangan nashri Harvard University Press tomonidan 1999-yilda chop etilgan.
12. Sen A. *The Idea of Justice*. – Cambridge, MA: The Belknap Press of Harvard University Press, 2009. – 468 p. Senning mazkur asari adolatni real imkoniyatlar va amaliy natijalar nuqtayi nazaridan tahlil qilgani sababli maqolangizning nazariy qismiga ayniqsa mos keladi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>